

KONSTITUTSIYANING HUQUQ VA ERKINLIKLARNI TA'MINLASHDAGI O'RNI

N.A.Mirzaliyev

*Jamoat xavfsizligi universiteti
kafedra o'qituvchisi,*

Annotatsiya: Ushbu maqolada konstitutsyaning huquq va erkinliklarni taminlashdagi o'rni, mamlakat taraqqiyotida tutgan ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar. Konstitutsiya, huquq, erkinlik, tuzuk, qomus, ma'naviy boylik, siyosiy-huquqiy tafakkur, xalq, huquqiy asos.

Аннотация: В данной статье раскрывается роль конституции в обеспечении прав и свобод и ее значение в развитии страны.

Ключевые слова. Конституция, право, свобода, конституция, словарь, духовное богатство, политico-правовое мышление, народ, правовая основа.

Annotation: This article reveals the role of the constitution in ensuring rights and freedoms and its importance in the development of the country.

Keywords. Constitution, law, freedom, constitution, dictionary, spiritual wealth, political and legal thinking, people, legal basis..

Mamlakatimizda bugungi kunda inson huquq va erkinliklarini ta'minlash borasida bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda. Birgina Konstitutsiyamizning yangi tahrirda qaytadan qabul qilinishining o'zida ham inson huquq va erkinliklarini ta'minlash borasida yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning amalda o'z ifodasini topayotganligini ko'rishimiz mumkin. Bu amalga oshirilayotgan barcha islohotlar albatda mamlakatimiz kelajagini huquqiy asosda qurish uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qilmoqda.

Yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev Konstitutsiyamiz haqida “Xalqimiz siyosiy-huquqiy tafakkurining yuksak namunasi, inson huquq va erkinliklarining qonuniy kafolati bo‘lgan, biz uchun ozod va obod hayot qurish yo‘lini ohib bergen Konstutusiyamiz bilan har qancha faxrlansak, g‘ururlansak, arziydi albatda”[1], – deb aytgan so‘zlarining o‘zi ham Konstutusiyamizning hayotimizda naqadar muhim o‘rin egallashining mazmun-mohiyatini belgilab beradi. Negaki davlatni davlat, millatni millat sifatida dunyoga tanitadigan huquqiy-siyosiy hujjat bu alabattda Konstitutsiya hisoblanadi. Shu ma’noda, qabul qilingan mamalakatimiz yangi Konstitutsiyasi xalqimizning yuksak ma’naviy boyliklari jumlasiga kiradi. Shuningdek, asosiy qonunimiz xalqimizning asriy orzu-umidlarini o‘zida mujassam etgan muhim tarixiy xujjat sifatida taraqqiyotimizning keyingi yo‘nalishlarini belgilab beruvchi huquqiy manbaga aylandi. Natijada bugungi kunda jamiyatimizning har bir jabhasida konstitutsiyaviy tamoyillar asosida keng qamrovli islohatlar davom ettirilmoqda.

Har bir davlat o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘lini tanlar ekan, xalq farovonligini taminlashga xizmat qiladigan eng muhim maqsad va vazifalarini o‘zining Konstitutsiyasi – asosiy qonunida mustahkamlab oladi. Binobarin o‘z xalqining xohish irodasi, dili va tilidagi ezgu niyatlariga hamohang Konstitutsiyaga ega bo‘lgan mamlakat o‘zi belgilagan yuksak marralardan hech qachon og‘ishmasdan doimo oldinga qarab boradi.[2]

Dunyoda barcha davlatlarning Konstitutsiyasida asosiy e’tibor fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta’minlashga qaratiladi. Huquq va erkinlik haqida so‘z borganda avvalo huquq va erkinlik tushunchasining mohiyatini bilish zarurdir.

Huquq - davlat tomonidan ta’milanadigan, himoya qilinadigan nimadir qilish, amalga oshirish, munosib yashash sharoitiga ega bo‘lish, zo‘rliklardan himoya qilinishning tabiiy imkoniyatidir. Erkinlik- biror bir narsada (xulq-atvorda, faoliyatda) qonun bilan taqiqlanmagan biror bir cheklashning yo‘qligidir. Ya’ni, huquqda asosiy masala imkoniyatga ega bo‘lish, erkinlikda esa, cheklashning yo‘qligidir.[3]

Huquq va erkinlik tushunchasi kechagina yaratilgan tushuncha emas, u asrlar davomida insonlarning tarixiy rivojlanishi natijasida yuzaga kelib, ularning ongi va shuuriga singib borgan. Buning natijasida esa bu tushunchalarni o‘zida mujassam etgan konstitutsiya vujudga kelgan. Konstitutsiyada nafaqat insonlarning huquq va erkinliklari qolaversa jamiyat hayotining barcha sohalari qamrab olinadi. Konstitutsiya atamasi milodiy I asrdayoq qadimgi Rimda mavjud bo‘lgan. Amir Temur bobomizning “Tuzuklar”i esa milliy an’analarimizga xos shakldagi konstitutsiyaviy hujjat xususiyatiga ega bo‘lgan.

Aynan yangi tahrirdagi qomusimiz ham ming yillik tarixga nazar solgan holda milliy va umuminsoniy qadriyatlar mushtarakligi, inson huquqlari va adolat tamoyillari ustuvor ekanligi tan olingan holda, hamda rivojlangan demokratik davlatlar to‘plagan ilg‘or tajribalar inobatga olib, eng asosiysi xalqimizning munosib hayot kechirishini ta’minlashga intilib, ijtimoiy tamoillar ustuvorligini inobatga olgan holda qabul qilingan. Bosh qomusimizning yangi tahrirda qabul qilinishi tom ma’noda ulkan bir tarixiy jarayon bo‘ldi. Bosh qomusimizda inson va fuqarolarning huquq va erkinliklariga asosiy e’tibor qaratilganligining o‘zi ham, mamlakatimizda inson sha’ni, qadr-qimmati naqadar muhim ekanligining yana bir dalilidir.

Yer yuzida birorta ham davlat yo‘qliki o‘z qonun-qoidalariga ega bo‘lmasligi, davlat mavjud ekan uning boshqaruvi asosini, tartibini hamda fuqarolarining huquq va erkinliklarini belgilaydigan o‘z qonun qoidalari bo‘ladi. Bu holat bizlar uchun tarixiy meros desak ham hech mubolag‘a bolmaydi. Zero, bundan bir necha yuz yillar oldin ulug‘ bobokolonimiz Amir Temur ham “Davlat qonunlar asosida qurilmas ekan, unday sultanatning shukuhi, qudrati va tarkibi yo‘qoladi ”[4], deb takidlagan edilar. Shu tariqa, o‘zida tarixiylik va zamonaviylikni o‘zida mujassamlashtirgan, jahonning ijtimoiy, siyosiy, falsafiy va huquqiy tafakkuri sohasida erishilgan yutuqlarni uyg‘unlashtirgan mamlakatimiz bosh qomusi qabul qilindi.

Qonunchilikka ko‘ra xalq davlat hokimyatining davlat hokimyatining birdan bir manbai ekanligi, davlat hokimiyati xalq manfatlarini ko‘zlab ish olib

borishi nazarda tutilgan. Shu bilan birgalikda fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat’iy nazar qonun oldida teng ekanligi qayd etilganligi bosh qomusimizning umuminsoniy g‘oyalarga ham sodiqligi namunasidir.[5]

Ulkan mehnatlar evaziga yaratilgan bosh qomusimiz abadul-abad nafaqat demokratik taraqqiyotimizning garovi, balki mamalakatimizda sodir bo‘layotgan ulkan o‘zgarishlarning huquqiy asosidir. Eng asosiysi bosh qomusimiz yangi O‘zbekistonning mustahkam poydevori bo‘lib xizmat qilmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, bugungi kunda konstitutsiyamizning mazmun-mohiyati, kalajagimizni qurishdagi tutgan ahamiyatini fuqarolarimiz ayniqsa katta hayot ostonasiga qadam qo‘yishga chog‘lanayotgan yoshlarning ongu-shuuriga chuqurroq singdirishimiz, ularda jamiyatimizda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarga daxldorlik xissini yanada oshishiga olib keladi. Shuningdek bosh qomusimiz barchamizning hayotimizda asosiy mezonga aylanishi lozim. Uning qoidalari butun hayotimiz davomida asosiy qoida va dasturamalga aylanishi darkor. Biz qanchalik Konstitutsiyanining mazmun-mohiyatini chuqurroq anglasak, uning hayotimizda tutgan o‘rnini yanada yaxshiroq tushunib yetamiz, ertangi kunga bo‘lgan ishonch bugungi kunidan hotirjamlik shukuhi shakllanadi. Shuningdek jamiyatda o‘zimiz va yaqinlarimizning hayot faoliyatini himoya qiluvchi mustahkam huquqiy asos mavjudligiga ishonch shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. “Xalq so‘zi” gazetasi. 2-3b. T-2023;
2. “Xalq so‘zi” gazetasi. 2-3b. T-2019;
3. O.T.Husanov . “Kosntitutsiyaviy huquq” darslik 146-b. Toshkent “Adolat ” 2013 y;
4. Sh.I.Naimov . “Kosntitutsiyaviy huquq” darslik 96-b. Toshkent “Adolat ” 2009 y;
5. O‘zbekiston Raspulikasi Konstitutsiyasi T-2017, 5-9 bet;

Internet saytlari:

1. www.lex.uz
2. www.mygov.uz
3. www.arxiv.uz
4. www.gazeta.uz